



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

ZO‘RAVONLIKKA DUCH KELGAN O‘SMIRLARNING EMOTSIONAL REGULYATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi,

Urganch Davlat Pedagogika Instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasio ‘qituvchisi
dilrabobaxtiyorovna@gmail.com , +998937519019

Annotatsiya. Mazkur maqolada zo‘ravonlikka duch kelgan o‘smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional regulyatsiya jarayonining kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari o‘rganilib, zo‘ravonlikning ushbu jarayonlarga salbiy ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, Post-travmatik stress buzilishi bilan bog‘liq emotsional buzilishlar kontekstida regulyatsiya mexanizmlarining izdan chiqishi asoslab beriladi. Maqolada emotsional regulyatsiyani tiklashga qaratilgan psixologik mexanizmlar – kognitiv qayta baholash, emotsional anglash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xulq-atvor strategiyalari tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqot natijalari zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar bilan psixokorreksion ishlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: emotsional regulyatsiya, zo‘ravonlik, o‘smirlar, psixologik mexanizm, PTSD, kognitiv qayta baholash, stressga chidamlilik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ РЕГУЛЯЦИИ У ПОДРОСТКОВ, ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ

Абдуллаева Дилрабо Бахтиёр кизи,

преподаватель кафедры «Педагогика и психология»
 Urganch State Pedagogical Institute

dilrabobaxtiyorovna@gmail.com , +998 93 751 90 19

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические механизмы развития эмоциональной регуляции у подростков, подвергшихся насилию. Анализируются когнитивные, аффективные и поведенческие компоненты эмоциональной регуляции, а также раскрывается негативное влияние насилия на данные процессы. Особое внимание уделяется нарушениям эмоциональной регуляции в контексте Post-travmatik stress buzilishi. В статье системно описаны механизмы восстановления эмоциональной регуляции, включая когнитивную переоценку, осознание эмоций, социальную поддержку и поведенческие стратегии. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования психокоррекционной работы с подростками.

Ключевые слова: эмоциональная регуляция, насилие, подростки, психологические механизмы, PTSD, когнитивная переоценка, стрессоустойчивость

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING EMOTIONAL REGULATION IN ADOLESCENTS EXPOSED TO VIOLENCE

Abdullayeva Dilrabo Bakhtiyor qizi,

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology,
 Urganch State Pedagogical Institute

dilrabobaxtiyorovna@gmail.com , +998 93 751 90 19

Abstract. This article examines the psychological mechanisms underlying the development of emotional regulation in adolescents exposed to violence. The study analyzes cognitive, affective, and behavioral components of emotional regulation and highlights the negative impact of violence on these processes. Particular attention is given to emotional dysregulation in the context of Post-travmatik stress buzilishi. The paper systematically describes mechanisms for restoring emotional regulation, including cognitive reappraisal, emotional awareness, social support, and behavioral strategies. The findings contribute to improving psychological intervention programs for adolescents affected by violence.

Keywords: emotional regulation, violence, adolescents, psychological mechanisms, PTSD, cognitive reappraisal, resilience

KIRISH. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o‘smirlar orasida zo‘ravonlik holatlarining ortib borishi ularning ruhiy salomatligiga jiddiy tahdid sifatida baholanmoqda. Zo‘ravonlikka duch kelgan o‘smirlar ko‘pincha emotsional beqarorlik, yuqori darajadagi xavotir, depressiv holatlar va agressiv xulq-atvor bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda shaxsning emotsional regulyatsiya qobiliyati izdan chiqadi, bu

esa uning ijtimoiy moslashuvi va psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Emotsional regulyatsiya — bu shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, boshqarish va mos ravishda ifodalash qobiliyatini o'z ichiga oluvchi murakkab psixologik jarayondir. Ushbu jarayon kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlarining o'zaro integratsiyasi asosida amalga oshadi. Zo'ravonlik omili esa aynan ushbu tizimga destruktiv ta'sir ko'rsatib, emotsional reaksiyalarning nazoratdan chiqishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarda emotsional regulyatsiya buzilishlari ko'pincha Post-travmatik stress buzilishi, affektiv disbalans va xulq-atvor muammolari bilan birga kechadi. Bu holat ularning stressga chidamliligini pasaytiradi va psixologik himoya mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, o'smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda emotsional regulyatsiya mexanizmlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Agar ushbu jarayon zo'ravonlik ta'sirida buzilsa, bu kelajakda shaxsning ijtimoiy va psixologik adaptatsiyasiga jiddiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu mexanizmlarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan.

Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasi muammosi zamonaviy psixologiyada kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonni tushuntirishda turli ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Emotsional regulyatsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda eng chuqur ishlab chiqilgan yondashuvlardan biri James Gross tomonidan taklif etilgan jarayon modeli hisoblanadi. Unga ko'ra, emotsiyalarni boshqarish ikki asosiy mexanizm orqali amalga oshiriladi: kognitiv qayta baholash va emotsiyalarni bostirish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlar ko'pincha konstruktiv strategiyalardan ko'ra, emotsiyalarni bostirishga moyil bo'lib, bu esa ichki zo'riqishning ortishiga olib keladi.

Shuningdek, emotsional regulyatsiya jarayonini tushuntirishda Richard Lazarusning stress va kognitiv baholash nazariyasi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, shaxsning emotsional reaksiyasi voqeani qanday baholashiga bog'liq. Zo'ravonlik holatida o'smirlar vaziyatni tahdid sifatida qabul qiladi, bu esa kuchli salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi va regulyatsiya jarayonini murakkablashtiradi.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa emotsional reaksiyalar va ularni boshqarish usullari ijtimoiy muhitda shakllanishini ta'kidlaydi. Zo'ravonlik muhitida ulg'ayayotgan o'smirlar ko'pincha agressiv yoki disfunktsional emotsional javoblarni model sifatida qabul qiladi. Bu esa emotsional regulyatsiyaning buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, John Bowlbyning bog'lanish (attachment) nazariyasi ham muhim tushuntiruvchi omil hisoblanadi. Unga ko'ra, bolaning ilk ijtimoiy-emotsional tajribasi uning keyingi emotsional boshqaruv strategiyalarini belgilaydi. Zo'ravonlik mavjud oilaviy muhitda xavfsiz bog'lanish shakllanmaydi, natijada o'smirda emotsional beqarorlik va regulyatsiya qiyinchiliklari yuzaga keladi. Travmatik tajribalar kontekstida emotsional regulyatsiya buzilishlarini tushuntirishda Bessel van der Kolkning ishlari alohida ahamiyatga ega. U travma insonning nafaqat psixologik, balki fiziologik tizimlariga ham ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarda aynan Post-travmatik stress buzilishi rivojlanishi emotsional regulyatsiya tizimining izdan chiqishi bilan bevosita bog'liqdir.

Kognitiv yondashuv doirasida Aaron Beck emotsional buzilishlarning asosida salbiy avtomatik fikrlar yotishini ta'kidlaydi. Zo'ravonlikka uchragan o'smirlarda “men qadrsizman”, “dunyo xavfli” kabi disfunktsional e'tiqodlar shakllanib, bu emotsional reaksiyalarni yanada kuchaytiradi va regulyatsiyani qiyinlashtiradi.

Gumanistik yondashuv vakili Carl Rogers esa shaxsning emotsional rivojlanishida qabul qilinish va qo'llab-quvvatlovchi muhitning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Mazkur nazariy yondashuvlar o'zbek psixologlari tomonidan ham rivojlantirilgan va milliy kontekstda boyitilgan. Xususan, Vasila Karimova o'z tadqiqotlarida oilaviy munosabatlarning shaxs psixologik rivojlanishiga ta'sirini chuqur tahlil qilib, disfunktsional oilaviy muhit o'smirlarning emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Uning fikricha, oiladagi zo'ravonlik va nizoli munosabatlar o'smirda xavotir, ichki ziddiyat va emotsional beqarorlikni kuchaytiradi.

Shuningdek, E.G‘oziev shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va tarbiya omillarining hal qiluvchi rolini ta’kidlab, o‘smirlik davrida emotsional sohaning shakllanishi aynan ijtimoiy ta’sirlar orqali amalga oshirishini ko‘rsatadi. Bu esa zo‘ravonlik sharoitida emotsional regulyatsiya mexanizmlarining buzilishiga olib keladi.

M.G.Davletshin esa o‘quvchi shaxsining psixologik rivojlanishida emotsional va motivatsion omillarning o‘zaro bog‘liqligini asoslab, salbiy emotsional tajriba o‘quv faoliyati va ijtimoiy moslashuvga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, Sh.Baratovning tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlar va kommunikativ muhitning emotsional rivojlanishga ta’siri yoritilgan bo‘lib, zo‘ravonlikka asoslangan ijtimoiy tajriba o‘smirlarning emotsional reaksiyalarini deformatsiyalashiga olib kelishi ko‘rsatiladi.

Travmatik tajribalar kontekstida emotsional regulyatsiya buzilishlarini tushuntirishda Bessel van der Kolkning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u travmaning psixika va nerv tizimiga kompleks ta’sirini asoslab beradi. Bu esa zo‘ravonlikka duch kelgan o‘smirlarda Post-travmatik stress buzilishi rivojlanishi bilan izohlanadi.

Zo‘ravonlik sharoitida bunday muhitning yo‘qligi o‘smirning o‘z emotsiyalarini erkin ifoda etish va boshqarish qobiliyatini cheklaydi.

Yuqoridagi o‘rganilgan nazariy tahlillarga asoslangan holda zo‘ravonlikka duch kelgan o‘smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va baholashga qaratilgan bo‘lib, kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida nazorat va eksperimental guruhlar qo‘llanilib, “oldin–keyin” (pre-test va post-test) o‘lchovlari orqali psixokorreksion ta’sir samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqotda 13–17 yosh oralig‘idagi, turli darajadagi zo‘ravonlik tajribasiga ega bo‘lgan jami 40 nafar o‘smir ishtirok etdi. Ishtirokchilar teng miqdorda ikki guruhga — eksperimental (n=20) va nazorat (n=20) guruhlariga ajratildi. Tanlov mezonlari sifatida zo‘ravonlik tajribasining mavjudligi, psixologik yordamga ehtiyoj va tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etish talablari belgilandi. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning anonimligi va etik me’yorlarga rioya etilishi ta’minlandi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda barcha ishtirokchilarga nisbatan boshlang‘ich diagnostika (pre-test) o‘tkazilib, ularning emotsional regulyatsiya darajasi, travmatik stress simptomlari, xavotir va o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari aniqlab olindi. Ikkinchi bosqichda eksperimental guruh ishtirokchilari bilan 8 hafta davomida maxsus ishlab chiqilgan psixokorreksion dastur amalga oshirildi. Dastur doirasida kognitiv qayta baholash ko‘nikmalarini shakllantirish, emotsional anglash va ifodalashni rivojlantirish, relaksatsiya texnikalarini o‘rgatish hamda ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlari olib borildi. Nazorat guruhida esa ushbu davrda maxsus psixokorreksion ta’sir ko‘rsatilmagan.

Uchinchi bosqichda yakuniy diagnostika (post-test) o‘tkazilib, boshlang‘ich va yakuniy natijalar o‘zaro taqqoslandi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Jumladan, o‘rtacha qiymatlar, foizli o‘zgarishlar hamda guruhlararo farqlarni aniqlash maqsadida taqqoslash usullari qo‘llanildi. Mazkur yondashuv psixokorreksion dastur samaradorligini hamda emotsional regulyatsiyani rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Zo‘ravonlikka duch kelgan o‘smirlarda emotsional regulyatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish, destruktiv emotsional reaksiyalarni kamaytirish hamda psixologik barqarorlikni tiklashga yo‘naltirilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqildi hamda nazorat guruhida o‘tkazildi. Mazkur psixokorreksion dastur zo‘ravonlikka duch kelgan o‘smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirish maqsadida tizimli ravishda amaliyotga joriy etildi. Dastur kichik guruhlar shaklida (8–10 nafar ishtirokchi) olib borilib, har bir mashg‘ulot 60–90 daqiqa davom etdi. Mashg‘ulotlar haftasiga ikki marotaba tashkil etilib, umumiy davomiyligi 8 haftani tashkil etdi.

Dastur jarayonida ishtirokchilarning psixologik xavfsizligi, ixtiyoriy ishtiroki va emotsional holatini hisobga olish asosiy tamoyil sifatida belgilandi. Har bir mashg‘ulot boshida qisqa refleksiya va emotsional holatni aniqlash, yakunida esa tahlil va fikr almashish amalga oshirildi. Bu yondashuv o‘smirlarning o‘z ichki kechinmalarini anglash va erkin ifoda etishiga imkon yaratdi.

Dastur qo‘llanilishi davomida bir necha muhim psixologik mexanizmlar bosqichma-bosqich ishga tushirildi. Dastlabki bosqichda ishonchli muhit shakllantirilishi orqali o‘smirlarning emotsional yopiq holatdan chiqishi kuzatildi. Keyingi bosqichlarda emotsiyalarni anglash va nomlash ko‘nikmalari

rivojlantirildi, bu esa emotsional reaksiyalarni ongli ravishda boshqarishning boshlanishiga zamin yaratdi. Kognitiv qayta baholash texnikalari orqali o'smirlarning salbiy fikrlash stereotiplari qayta ishlanib, voqealarni konstruktiv talqin qilish qobiliyati shakllandi. Yakuniy bosqichlarda esa moslashuvchan xulq-atvor strategiyalari va relaksatsiya texnikalari orqali ichki zo'riqishni kamaytirish hamda psixologik barqarorlikni mustahkamlashga erishildi.

Dastur samaradorligini baholash maqsadida boshlang'ich va yakuniy diagnostika natijalari o'zaro taqqoslandi. Natijalarga ko'ra, eksperimental guruh ishtirokchilarida emotsional regulyatsiyaning konstruktiv strategiyalari, xususan, kognitiv qayta baholash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, emotsiyalarni bostirish kabi disfunktsional strategiyalar kamaygani aniqlandi.

Zo'ravonlik bilan bog'liq travmatik simptomlar, jumladan Post-travmatik stress buzilishiga xos belgilar darajasida ham pasayish kuzatildi. Bu esa dastur doirasida qo'llanilgan emotsional anglash va qayta ishlash mexanizmlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ishtirokchilarda umumiy xavotir darajasining kamayishi va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining oshishi qayd etildi.

Nazorat guruhida esa sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi, bu esa psixokorreksion ta'sirning natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, emotsional regulyatsiyani rivojlantirish maqsadida qo'llanilgan kompleks psixokorreksion dastur zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning psixologik holatini yaxshilashda samarali hisoblanadi.

Umuman olganda, dastur natijalari emotsional regulyatsiya faqat emotsiyalarni nazorat qilish emas, balki ularni anglash, qayta ishlash va mos ravishda ifodalashni o'z ichiga oluvchi murakkab psixologik tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur tizimni rivojlantirish esa o'smirlarning ruhiy barqarorligini tiklashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasi sezilarli darajada buzilishini hamda bu jarayon kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlarining izdan chiqishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida emotsional regulyatsiya mexanizmlarining buzilishi salbiy kognitiv sxemalar, yuqori darajadagi xavotir va travmatik stress bilan bevosita aloqador ekanligi aniqlandi.

Amaliyotga joriy etilgan psixokorreksion dastur natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlarning emotsional regulyatsiyasi tizimli yondashuv asosida samarali rivojlantirilishi mumkin. Xususan, kognitiv qayta baholash strategiyalarining shakllanishi, emotsiyalarni anglash darajasining oshishi hamda moslashuvchan xulq-atvor ko'nikmalarining rivojlanishi natijasida umumiy psixologik holat yaxshilandi. Shu bilan birga, Post-travmatik stress buzilishi simptomlarining kamayishi, xavotir darajasining pasayishi va o'z-o'zini baholashning oshishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari emotsional regulyatsiya murakkab, ko'p komponentli psixologik tizim ekanligini tasdiqladi. Uni rivojlantirish faqat emotsiyalarni nazorat qilish bilan emas, balki kognitiv qayta ishlash, emotsional anglash va ijtimoiy tajriba orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan, ishlab chiqilgan psixokorreksion dastur zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning ruhiy barqarorligini tiklashda samarali vosita sifatida baholanishi mumkin.

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Maktab psixologlari uchun. Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlar bilan ishlashda emotsional regulyatsiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixokorreksion dasturlarni joriy etish zarur. Ish jarayonida diagnostika va individual yondashuv majburiy komponent sifatida qo'llanishi lozim.
2. Psixologik xizmat tizimi uchun. Emotsional regulyatsiya buzilishlarini erta aniqlash maqsadida standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa travmatik tajribaga ega o'smirlarni aniqlash va ular bilan tizimli ish olib borish muhimdir.
3. Ota-onalar uchun. Oila muhitida qo'llab-quvvatlovchi, xavfsiz psixologik iqlimni shakllantirish, o'smirning emotsiyalarini inkor etmasdan, ularni tinglash va tushunishga intilish zarur. Zo'ravonlikka olib keluvchi omillarni bartaraf etish profilaktikaning asosiy sharti hisoblanadi.
4. Pedagoglar uchun. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsional holatini hisobga olish, stressni kamaytiruvchi pedagogik yondashuvlardan foydalanish hamda ijobiy ijtimoiy muhit yaratish tavsiya etiladi.
5. Ilmiy tadqiqotlar uchun. Kelgusida emotsional regulyatsiyani rivojlantirishning neyropsixologik va

ijtimoiy omillarini chuqurroq o'rganish, shuningdek, turli yosh guruhlarida psixokorreksion dasturlar samaradorligini solishtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. James Gross J.J. (1998). *The emerging field of emotion regulation: An integrative review*. Review of General Psychology, 2(3), 271–299.
2. James Gross J.J., & John O.P. (2003). *Individual differences in two emotion regulation processes: Implications for affect, relationships, and well-being*. Journal of Personality and Social Psychology, 85(2), 348–362.
3. Aaron Beck A.T. (1976). *Cognitive Therapy and the Emotional Disorders*. New York: International Universities Press.
4. Albert Bandura A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
5. Richard Lazarus R.S., & Folkman S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. New York: Springer.
6. John Bowlby J. (1988). *A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development*. New York: Basic Books.
7. Bessel van der Kolk B.A. (2014). *The Body Keeps the Score: Brain, Mind, and Body in the Healing of Trauma*. New York: Viking.
8. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5)*. Washington, DC.
9. V.Karimova (2018). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti.
10. E.G'oziev E. (2002). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
11. M.G.Davletshin.(2005). *Yosh va pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Sh.Baratov Sh. (2010). *Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
13. Spielberger C.D. (1983). *Manual for the State-Trait Anxiety Inventory (STAI)*. Palo Alto: Consulting Psychologists Press.
14. Rosenberg M. (1965). *Society and the Adolescent Self-Image*. Princeton: Princeton University Press.
15. D.B.Abdullayeva. “The impact of domestic violence on adolescent personality development in local literature”

<https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/12139>

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Рузиева Наргиза Омонжоновна , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirxanova Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129